

SOLIQ IMTIYOZLARI VA ULARNING HUQUQIY ASOSLARI

Xoldorov Kozimjon Nasimjon o'g'li

Termiz davlat universiteti "Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi.

Telefon +998(97)111-94-96.

Xursanova Zarina Anvarovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14558739>

Annotatsiya. Soliqlar davlat budgetining asosiy manbasi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Shu bois, mukammal soliq tizimini ishlab chiqish hamda ayrim soliq to'lovchilarga muayyan imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliqlar va soliq imtiyozlarining huquqiy asoslari, ularni tatbiq etishning tartib-qoidalari hamda iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilish bilan birga, Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar doirasida soliq imtiyozlarini tushunchasi, ularning amal qilish mezonlari va shartlari batafsil ochib berilgan. Bundan tashqari, soliq imtiyozlarining iqtisodiyotga ta'siri, jumladan, ishlab chiqarish, moliyaviy xizmatlar, savdo va boshqa sohalarda ularning roli statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Singapur tajribasi misolida soliq imtiyozlarini qo'llashning xalqaro tajribasi ham o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: Soliq imtiyozlar, soliq kodeksi, soliq rezidenti, iqtisodiy rivojlanish, soliqqa tortish, huquqiy asoslar, qayta tiklanadigan energiya, moliyaviy xizmatlar, tadbirkorlik, Singapur tajribasi, va boshqalar.

TAX PRIVILEGES AND THEIR LEGAL BASIS

Abstract. We all know that taxes are the main source of the state budget. Therefore, it is advisable to develop a sound tax system and provide certain benefits to certain taxpayers. This article analyzes the legal basis of taxes and tax benefits in the Republic of Uzbekistan, the procedures for their implementation and their impact on economic development, as well as the concept of tax benefits, the criteria and conditions for their application within the framework of the Tax Code and other regulatory legal acts. In addition, the impact of tax benefits on the economy, including their role in production, financial services, trade and other sectors, is covered based on statistical data. The international experience of applying tax benefits is also studied using the example of Singapore's experience.

Keywords: Tax benefits, tax code, tax resident, economic development, taxation, legal framework, renewable energy, financial services, entrepreneurship, Singapore's experience, etc.

НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ И ИХ ПРАВОВОЕ ОСНОВАНИЕ

Аннотация. Все мы знаем, что налоги являются основным источником государственного бюджета. Поэтому целесообразно разработать совершенную

налоговую систему и предоставить определенные льготы определенным налогоплательщикам. В данной статье анализируются правовые основы налогов и налоговых кредитов в Республике Узбекистан, порядок их применения и влияние на экономическое развитие, а также понятие налоговых кредитов в рамках Налогового кодекса и других нормативных правовых документов, а также критерии и условия их применения. Кроме того, на основе статистических данных освещено влияние налоговых льгот на экономику, в том числе их роль в производстве, финансовых услугах, торговле и других сферах. Также был изучен международный опыт применения налоговых льгот на примере опыта Сингапура.

Ключевые слова: налоговые льготы, налоговый кодекс, налоговый резидент, экономическое развитие, налогообложение, правовая база, возобновляемые источники энергии, финансовые услуги, предпринимательство, опыт Сингапура и т.д.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasing 63-moddasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig’imlarni to‘lashi shart, shuningdek soliq va yig’imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sinqilik qilmasligi kerak¹ deb belgilangan. Bundan tashqari Respublikamiz Soliq kodeksining 16-moddasida soliq tushunchasiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra soliq deganda Soliq kodeksida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga yoki davlat maqsadli jamg’armasiga to‘lanadigan majburiy beg’araz to‘lov tushuniladi. Soliq kodeksining 75-moddasida esa soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g’risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliq to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliq soliq imtiyozlari deb e’tirof etilgan. Soliq to‘lovchiga soliqlarni to‘lash bo‘yicha muddatni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi. Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emas.²

O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlari faqat soliq rezidentlariga nisbatan qo‘llaniladi. Soliq kodeksining 30-moddasida Tegishli maqomi o‘ziga nisbatan belgilangan soliq davri boshlanadigan yoki tugaydigan har qanday ketma-ket o’n ikki oylik davr davomida jami bir yuz sakson uch kalendar kundan ko‘proq O‘zbekiston Respublikasida haqiqatda bo‘lgan jismoniy shaxslar O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari hisoblanadi deb belgilangan.³

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

² O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;

³ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.⁴

Soliq to'lovchilar soliqlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ularning butun amal qilish davri mobaynida foydalanishga yoki soliq imtiyozidan foydalanishdan voz kechishga yoxud undan foydalanishni bir yoki bir necha soliq davrlarida to'xtatib turishga haqli hisiblanadilar, bundan qo'shilgan qiymat solig'dan ozod etiladigan tovarlarni realizatsiya qilish mustasno. Soliq imtiyozlari soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin, ammo bu mablag'lar maqsadli ishlatilmaganda maqsadsiz ishlatilgan summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budgetga undiriladi.

Soliq kodeksining 378-modda 16-bandida Nodavlat maktabgacha yoki mактаб та'lim tashkilotiga ota-onas (farzandlikka oluvchi)lar tomonidan, har bir farzandi uchun oyiga 3 mln so'mgacha yo'naltirilgan daromadlari soliq solishdan ozod qilinishi keltirib o'tilgan. Bunda ota yoki ona ish joyi bo'yicha buxgalteriyaga mablag'larni nodavlat maktabgacha yoki mактаб та'lim tashkilotiga o'tkazish haqida ariza va to'lov uchun hisob taqdim etgan holda yoki soliq xizmatiga my3.soliq.uz sayti yoki Soliq mobil ilovasi orqali yil yakunlari bo'yicha daromadlar to'g'risida deklaratsiyaga shartnomaga va to'lov qog'ozini biriktirib taqdim etgan holda foydalanishi mumkin.

Deklaratsiya yuborilgandan so'ng to'langan soliq summasini qaytarish uchun ariza topshirish lozim. Raqamli markirovkalangan mahsulotlar chakana savdosini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni ta'minlovchi maxsus qurilmalardan foydalanishi shart. 2027-yil 1-yanvarga qadar tadbirkorlik subyektlari maxsus qurilmalarning har birini sotib olish bilan bog'liq xarajatlar summasini, biroq BHMning 4 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan foya solig'i yoki AOS yoxud YTTlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalariga kamaytirish huquqi berildi($4 \times 375\ 000 = 1\ 500\ 000$ so'm). Avval ushbu imtiyoz 2023-yilning 1-yanvariga qadar berilgan edi.⁵

Jismoniy shaxslar 3 yil muddatga turar joy obyektlari bo'yicha mol-mulk va yer solig'idan ozod qilinadilar, agarda umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatganda, bunda imtiyoz miqdori mol-mulk solig'i bo'yicha 2 BHM dan

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Soliq huquqi Darsligi - 2022;

⁵ <https://t.me/soliqnews>;


yer solig'i bo'yicha 1 BHM dan oshmasligi kerak.⁶ Imtiyozlardan foydalanish uchun hududiy soliq organlariga qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'rnatish va ulardan foydalanish to'g'risidagi **guvohnomani** taqdim etish kerak. 2024-yilda 242 nafar fuqaro 233,4 million so'mlik imtiyozlardan foydalangan.⁷

Davlat soliq qo'mitasi «E-imtiyoz» avtomatlashtirilgan axborot tizimidan oborot solig'i va qo'shilgan qiymat solig'in to'lovchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlar foydalanishi mumkinligini haqida ta'kidladi.

Tizim tomonidan hisobotda soliq imtiyozlari avtomatik tarzda shakllantirilishi uchun tadbirdorlar «E-imtiyoz» ga ariza bilan murojaat qilishlari kerak, bu ariza soliq to'lovchining my.soliq.uz shaxsiy kabinetidagi "Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha murojaat" bo'limida joylashgan.⁸

2024-yil 1-yarim yillik yakuni bo'yicha foydalanilgan umumiy soliq va bojxona imtiyozlari qiymati 63,4 trln so'mni, 2023-yilda 127,1 trln so'mni tashkil etgan.⁹

2024-yilning birinchi yarim yilligida foydalanilgan soliq imtiyozlari haqida statistik ma'lumotlar:




⁶ 16.02.2023-yildagi № PQ-57;

⁷ <https://t.me/spot.uz>;


⁸ <https://www.bss.uz>;

⁹ Anticorruption.uz;



Bu grafikdan ko'rinish turibdiki, 2024-yilning birinchi yarim yilligi uchun soliq imtiyozlarining asosiy qismi ya'ni 87 % "Soliq kodeksi" orqali berilgan.

Ushbu grafikda esa eng yuqori ulush Ishlab chiqarish faoliyati bo'lib, u 34,4% ni tashkil etadi. Yuqorida O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi va asoslari haqida tanishib chiqdik. Soliq imtiyozlari haqida yanada chuqurroq ma'lumotga va tasavvurga ega bo'lish maqsadida Singapur qonunchiligiga yuzlandik: Singapurda soliq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat bu Income Tax Act hisoblanadi. Unga ko'ra Soliq - bu shaxslar va tashkilotlar tomonidan davlatga to'lanadigan majburiy to'lov bo'lib, u davlat faoliyati va xizmatlarini moliyalashtirish uchun undiriladi deb keltirilgan. Singapurda Korporativ daromad solig'i imtiyozlari yangi bizneslar uchun imtiyozlar va kichik va o'rta bizneslar uchun imtiyozlarga



bo‘linadi. Unga ko‘ra yangi tashkil etilgan korxonalar birinchi 3 yil davomida daromad solig'i to‘lashda ma'lum miqdorda imtiyoz olishlari mumkin. Masalan, birinchi 100,000 SGD daromad uchun 75% chegirma va keyingi 100,000 SGD uchun 50% chegirma taqdim etiladi. Kichik va o'rtalbizneslar uchun ham soliq imtiyozlari mavjud bo'lib, bu ularning o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan.

Kichik va O'rta Bizneslar tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak: Yillik daromadi 1 million SGDgacha bo'lgan va 10 dan kam xodimga ega bo'lgan korxonalar kichik biznes, yillik daromadi 1 million SGDdan 100 million SGD gacha bo'lgan va 10 dan 200 gacha xodimga ega bo'lgan korxonalar o'rta biznes hisoblanadilar.

Singapurda soliq imtiyozlarini qo'llash besh bosqichdan iborat. Bu bosqichlar imtiyoz dasturini aniqlash bilan boshlanadi va ariza topshiriladi, undan keyin tekshirish va tasdiqlash amalga oshiriladi, so'ngra imtiyoz qo'llash bosqichiga o'tiladi, yakunida monitoring va hisobot berish amalga oshitiladi. Demak, Singapurda soliq imtiyozlarini qo'llash bir muncha murakkab jarayon ekanligi shubhasiz. Shu bois, soliq imtiyozlaridan foydalanish maqsadida yuridik yordam olish maqsadga muvofiq bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz.

Singapur hukumatining iqtisodiy siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy agentliklardan biri bu - EDB Singapur Iqtisodiy Rivojlanish Kengashi (Economic Development Board, EDB)¹⁰ hisoblanadi. 1961-yilda tashkil etilgan mamlakatning sanoat va iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda Singapurning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

EDB Singapurga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ish o'rirlari yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga harakat qiladi. Bu jarayonda u yirik xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi va ularni Singapurda faoliyat yuritishga undaydi.

Kengash yuqori texnologiyali va innovatsion sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Bu orqali Singapur iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va barqaror o'sishi ta'minlanadi.

EDB Singapurda qulay biznes muhitini yaratish uchun soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji va boshqa qo'llab-quvvatlash choralarini orqali mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun sharoitlarni yaxshilaydi. Singapur Iqtisodiy Rivojlanish Kengashi mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyatlarida muhim rol o'ynab, uni global iqtisodiyotning yetakchi ishtirokchilaridan biriga aylantirishda katta hissa qo'shamoqda.

Yuqorida keltirilgan statistika va ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki soliq imtiyozlari bilan bog'liq munosabatlar yildan-yilga tobora takomillashib va kengayib bormoqda.

¹⁰ <https://www.edb.gov.sg>;

Bu esa, albatta ijobiy ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiyotning turli sohalarida rivojlanish uchun yangi imkoniyatlар yaratadi. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, soliq imtiyozlarining samarali va maqsadli taqsimlanishi davlat byudjetiga tushumlarni optimallashtirish bilan birga, iqtisodiy resurslarni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya manbalari va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan imtiyozlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega. Singapur tajribasidan ko'rinish turibdiki, soliq imtiyozlarini strategik va tizimli qo'llash iqtisodiyotni global raqobatbardosh qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida ham bu jarayonning xalqaro tajribalar asosida rivojlanishi mamlakatni iqtisodiy jihatdan kuchaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Xulosa o'rnila shuni aytish mumkin-ki, soliqlar va soliq imtiyozlarining samarali boshqaruvi iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini oshirish va davlat byudjetining barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur tizimni yanada takomillashtirish ustuvor ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (63-modda);
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 30.12.2019.;
3. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Soliq huquqi Darsligi - 2022;
4. O'zbekiston Respublikasining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16.02.2023-yildagi PQ-57;
5. my.soliq.uz;
6. <https://www.bss.uz>
7. Anticorruption.uz;
8. <https://t.me/soliqnews>;
9. my3.soliq.uz;
10. https://t.me/spotuz_uz;
11. <https://t.me/fiskaltahlil>;
12. Income Tax Act;
13. <https://www.edb.gov.sg>.